

O‘ZBEK VA INGLIZ ROMANLARIDA RUHIY KONFLIKTNING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mavluda O‘rolova

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy,
Faculty of Philology, Foreign Language and Literature,
Group 204 student. Denau city
mavludaorolova9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21152092>

ANNOTATSIYA: Bu maqolada ingliz va o‘zbek romanchiligining yetakchi namunalari o‘laroq bosh qahramonlar obrazida sanhaga keluvchi ruhiy konfliktlar (psixologik to‘qnashuvlar) qiyosiy-tipologik planda tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida G‘arb adabiyotidagi individualizm, ekzistensial inqiroz va “ong oqimi” hodisasi bilan Sharq badiiy tafakkuridagi ma’naviy-axloqiy burch, imon hamda ijtimoiy andisha mezonlari o‘zaro muqoyasa qilingan. Aniq badiiy matnlar tahlili orqali ruhiy konfliktlarning shakllanish sabablari, rivojlanish bosqichlari va yechim xarakteriga ko‘ra tizimli tiplarga ajratilgan hamda milliy va umuminsoniy jihatlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ruhiy konflikt, ichki kechinma, qiyosiy adabiyotshunoslik, o‘zbek romanchiligi, ingliz romanchiligi, psixologizm, badiiy personaj, ong oqimi, ijtimoiy burch, shaxs erkinligi.

Kirish Badiiy adabiyotshunoslikning eng fundamental va doimiy o‘rganiladigan yo‘nalishlaridan biri - bu inson ruhiy olamining badiiy matnda aks ettirilishi hamda psixologizm muammosidir. Roman janrining o‘ziga xos tabiati, uning estetik qiymati va evolutsiyasi, birinchi navbatda, qahramon xarakterining shakllanishi hamda undagi ruhiy evrilishlar ko‘lami bilan o‘lchanadi. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot tizimi har qachongidan ham kuchaygan bugungi davrda, G‘arb va Sharq adabiyotidagi yetakchi janr hisoblangan romanchilikni qiyosiy-tipologik planda tadqiq etish alohida ilmiy qimmatga ega. Ingliz adabiyotining individualizmga asoslangan boy psixologik maktabi va o‘zbek adabiyotining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanuvchi, inson vijdoni va ruhiyatini tahlil qilish an‘analarini o‘zaro muqoyasa qilish jahon adabiyotshunosligidagi umuminsoniy qonuniyatlarni kashf etish imkonini beradi. Mazkur omillar ushbu mavzuning zamonaviy filologiya fanida naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Adabiyotshunoslik ilmida har ikki milliy adabiyot namunalari alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘zbek va ingliz romanlarida qahramonlar boshidan kechiradigan ruhiy konflikt, ya’ni ichki psixologik to‘qnashuv tushunchasi hali tizimli va qiyosiy-tipologik jihatdan mukammal klassifikatsiya qilinmagan. Ko‘pincha badiiy asardagi ruhiy konflikt tushunchasi umumiy tarzda ijtimoiy-siyosiy to‘qnashuvlarning bir qismi yoki shunchaki qahramonning tushkun holati sifatida yuzaki talqin qilinadi. Vaholanki, personajning o‘z-o‘zi bilan ichki kurashi, imon va burch to‘qnashuvi, an‘analar va shaxsiy erkinlik ziddiyati yoki ekzistensial inqirozlari qanday tipologik modellarga bo‘linishi hamda ularning milliy mentalitet bilan mantiqiy bog‘liqligi chuqur ilmiy muammo sifatida ochib berishni talab etadi.

Ushbu tadqiqotning bosh obyekti sifatida XIX-XX asr va zamonaviy o‘zbek hamda ingliz romanchiligining eng sara namunalari, xususan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Odil Yoqubov hamda Sharlotta Bronte, Virjiniya Vulf, Tomas Hardi romanlari tanlab olindi. Tadqiqotning predmeti esa mazkur romanlardagi bosh qahramonlar obrazida namoyon bo‘luvchi ruhiy konflikt turlari, ichki monologlar, “ong oqimi” elementlari va psixologik tasvir vositalarining tipologik xususiyatlarini tashkil etadi. Ishning bosh maqsadi -o‘zbek va ingliz romanlarida qahramon ruhiyatidagi ichki

ziddiyatlarning tipologik modellarini aniqlash hamda ularning badiiy-funksional jihatlarini qiyosiy o'rganishdan iboratdir. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, tarixiy-tipologik, strukturaviy-funksional va badiiy-psixologik tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Mazkur ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda ilk bor o'zbek va ingliz romanlaridagi ruhiy konfliktlar shunchaki tasodifiy kechinma emas, balki ma'malum bir tizimli tiplarga ajratilib, klassifikatsiya qilindi.

Ingliz romanlarida ruhiy konflikt tipologiyasi

Ingliz romanchiligi, xususan, XIX-XX asrlar va realizmdan modernizmga o'tish davrida inson ruhiyatini tasvirlashning eng mukammal psixologik usullarini shakllantirgan boy adabiy makon hisoblanadi. Ingliz romanlarida ruhiy konflikt ko'p hollarda shaxsning o'z haq-huquqlari, individual erkinligi va ichki istaklari uchun atrof-muhit hamda qat'iy jamiyat qonuniyatlariga qarshi isyoni shaklida bo'y ko'rsatadi. Bu yerdagi psixologik to'qnashuvlar insonning o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan ekzistensial ehtiyojidan va jamiyat tomonidan o'rnatilgan qoliplarni rad etishidan kelib chiqadi.

Ushbu adabiyotda ruhiy konfliktning birinchi yorqin tipi - **ijtimoiy tabaqalanish va axloqiy prinsiplar to'qnashuvidir**. Buning eng mukammal namunasini Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” (Jane Eyre) romanida ko'rish mumkin. Bosh qahramon Jeyn Eyrning butun hayoti ichki ziddiyatlar ustiga qurilgan: u janob Rochesterga bo'lgan o'zining kuchli ehtirosli sevgisi va o'zining diniy-axloqiy poklik prinsiplari o'rtasida qoladi. Rochesterning yashirin xotini borligini bilgan lahzada Jeynning ruhiyatida fojiaiy to'qnashuv yuz beradi. U bir tomondan sevikli insoni bilan qolib baxtli bo'lishni istasa, ikkinchi tomondan o'zining ayollik sha'ni, mustaqilligi va vijdonini saqlash uchun u yerdan qochib ketishga qaror qiladi. Bu-shaxsning o'z tuyg'ulari ustidan qat'iy iroda va mantiq orqali g'alaba qozonishiga asoslangan aktiv-ruhiy konflikt tipidir.

Ruhiy konfliktning ikkinchi bir keng tarqalgan turi-**ijtimoiy taqdir va determinizm (muhit girdobi) fojiasidir**. Tomas Hardining “Tessning taqdiri” (Tess of the d'Urbervilles) romani bu toifaning eng og'riqli namunasidir. Bosh qahramon Tess o'z tabiati va ichki dunyosiga ko'ra mutlaqo sof, begubor ayol bo'lsa-da, u duch kelgan ijtimoiy adolatsizliklar va o'zi istamagan holda sodir bo'lgan “gunoh” uni chuqur vijdon azobiga uchratadi. Tessning ruhiy konflikti uning o'z sevgilisi Anjel Kler oldidagi qo'rquvlari va o'tmish sirlarini ochish yoki ochmaslik o'rtasidagi ikkilanishlarida namoyon bo'ladi. Jamiyatning soxta va shafqatsiz axloq qoidalari Tessning pokiza ruhiyatini ezib, uni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi va yakunda fojiaiy qurbonga aylantiradi.

XX asr boshlariga kelib, ingliz modernistik romanlarida ruhiy konflikt butunlay yangicha shakl oldi va u **“ong oqimi” (stream of consciousness) hamda ekzistensial yolg'izlik** ko'rinishida namoyon bo'ldi. Virjiniya Vulfning “Mayoq sari” (To the Lighthouse) romanida voqealar tashqi dunyoda emas, balki qahramonlarning miyasida va ong osti qatlamlarida kechadi. Ramsay xonimning ichki olami hayotning o'tkinchiligi, vaqtning shafqatsiz tezligi va insonlar o'rtasidagi ruhiy aloqalarning mo'rtligi haqidagi doimiy og'riqli o'ylar bilan band. Lili Briskoning ruhiy konflikti esa o'zini rassom sifatida kashf etish va ayol sifatida jamiyat talablariga bo'ysunish o'rtasidagi ikkilanishlarda, san'at orqali hayotga mazmun berishga urinishlarida aks etadi. Bu yerda qahramonlar tashqi dushman bilan emas, balki foniylilik va mavjudlikning mohiyati bilan ruhan to'qnashadilar.

Shuningdek, Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” (The Picture of Dorian Gray) romani ham ingliz adabiyotidagi **estetik va axloqiy ruhiy konfliktning** eng cho'qqisidir. Dorian Greyning fojiasi uning mangu yoshlik va go'zallikka bo'lgan jismoniy intilishi hamda har bir qilgan jinoyati evaziga portretida aks etayotgan vijdonining chirishi o'rtasidagi mudhish to'qnashuvdir. Dorian

tashqi tomondan nuqsonsiz ko'rinsa-da, uning ichki dunyosi qo'rquv, nafrat va o'z-o'zini yomon ko'rish girdobiga aylanadi. U portretga (ya'ni o'z vijdoniga) chiday olmay unga pichoq urganida, aslida o'z ruhiy konfliktiga nuqta qo'yadi va o'zini halok qiladi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ingliz romanlaridagi ruhiy konflikt qahramonni har doim qat'iy tanlov oldiga qo'yadi. Bu konfliktlar shaxsning jamiyat qoliplarini buzib chiqishi (Jeyn Eyr), muhit qurboniga aylanishi (Tess), o'z ongi ichida yolg'izlanishi (Ramsay xonim) yoki o'z vijdoni bilan to'qnashib halok bo'lishi (Dorian Grey) kabi rang-barang tipologik modellarni o'z ichiga oladi.

O'zbek romanlarida ruhiy konflikt tipologiyasi

O'zbek romanchiligida ruhiy konfliktning genezisi, tabiati va badiiy-estetik evolutsiyasi o'ziga xos Sharqona falsafiy dunyoqarash, tasavvufiy ildizlar, islomiy qadriyatlar va milliy mentalitet tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek yozuvchilari yaratgan obrazlarda ichki to'qnashuv shunchaki g'arbona individual erkinlik talabi emas, balki yuksak ma'naviy-axloqiy mas'uliyat, iymon, shaxsiy tuyg'u va ijtimoiy burch o'rtasidagi fojiaiy ziddiyatlar asosiga quriladi. Qahramon o'z ichki dunyosida iztirob chekar ekan, u doimo o'z vijdoni, oilasi va xalqi oldidagi burchi tarozi pallasiga qo'yilgan murakkab vaziyatlarga duch keladi.

Ushbu adabiyotda ruhiy konfliktning birinchi va eng fundamental tipi - **ma'naviy-andishali va an'anaviy burch konflikti** hisoblanadi. Buning eng yorqin va mukammal namunasini Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ko'rish mumkin. Bosh qahramon Otabekning ichki dunyosi ikki o't orasida - Kumushga bo'lgan cheksiz lirik muhabbati hamda ota-onasi oldidagi farzandlik andishasi va ijtimoiy burchi (Zaynabga uylanish majburiyati) o'rtasidagi shafqatsiz kurash maydoniga aylanadi. Otabek g'arb qahramonlari kabi o'z shaxsiy baxti uchun oilaviy andishalarni osongina buzib chiqa olmaydi; uning ruhiy iztirobi aynan mana shu Sharqona andisha va hurmat zanjirida aks etadi. U sevgisini ham, burchini ham birdek muqaddas biladi va yakunda bu ikki buyuk tuyg'uning to'qnashuvi qahramonni ruhan yemirilishga va fojiaiy yakunga yetaklaydi. Bu - mulqot va yechim topish imkonsiz bo'lgan passiv-andishali ruhiy konfliktning oliy namunasidir.

Ruhiy konfliktning ikkinchi bir keng ko'lamli tipi - **ijtimoiy-siyosiy muhit tazyiqi ostidagi ekzistensial chorasizlik va ruhiy siqilishdir**. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani ushbu toifani ochib berishda mislsiz ilmiy va badiiy qiymatga ega. Asardagi Akbarali obrazi o'zining amali, shaxsiy hayoti, nafs va qalbining tubida uyg'onayotgan vijdon azobi o'rtasida chorrahada qolgan qahramondir. U chor mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy adolatsizlik tizimining bir bo'lagi bo'la turib, ruhan butunlay inqirozga yuz tutadi. Zebining ichki olami esa erkdan mahrumlik, qat'iy qoliplar va tuhmat qarshisidagi chorasiz qalbning ruhiy faryodidir. Cho'lpon qahramonlarining ichki konflikti shunchaki individual hissiyot emas, balki butun boshli millat va davr fojeasining shaxs ruhiyatidagi in'ikosidir.

XX asrning ikkinchi yarmi, xususan, o'zbek adabiyotida renessans davri hisoblangan yetmishinchi-saksoninchi yillarga kelib, ruhiy konflikt **iymon, diyonat va ma'naviy poklanish mezon** darajasiga ko'tarildi. Odil Yoqubovning "Diyonat" romanidagi Otaboy oqsoqol obrazi buning yorqin dalilidir. Qahramonning ruhiy konflikti o'zi yashab turgan jamiyatdagi korrupsiya, soxtalik, adolatsizlik va eng achinarlisi - o'z yaqinlarining (o'g'lining) iymonsizligiga qarshi ichki kurashida namoyon bo'ladi. Otaboy oqsoqol har bir qabihlikni o'z vijdonidan o'tkazadi, uning iztirobi - zamon oqimiga qarshi suzish va har qanday sharoitda ham insoniylikni saqlab qolish azobidir. Bu yerda konflikt qahramonning dunyo qarashi va atrof-muhitning tubbanligi o'rtasidagi murosasiz kurash shakliga kiradi.

Shuningdek, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi Dehqonqul obrazi ham o'zbek adabiyotidagi **milliy o'zlik va g'oyaviy ruhiy konfliktning** o'ziga xos tipologik

namunasidir. Dehqonqulning butun umr tinimsiz mehnat qilib, yerga, paxtaga sig'inishi va sho'ro mafkurasi tomonidan uning bu sadoqatining poymol etilishi qahramon ruhiyatida fojiaiy uyg'onishni boshlab beradi. Uning ichki mojarosi "Men kim edim-u, kim bo'ldim?" degan milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usining kech uyg'onishidagi ruhiy iztiroblarda aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek romanlaridagi ruhiy konflikt har doim shaxsni ma'naviy imtihondan o'tkazadi. Bu konfliktlar qahramonning milliy andisha tufayli taqdirga tan berishi (Otabek), ijtimoiy tuzum tazyiqi ostida ruhan ezilishi (Zebi), yuksak iymon va diyonat uchun yolg'izlanishi (Otaboy oqsoqol) hamda milliy o'zlikni anglash yo'lidagi fojiaiy evrilishlari (Dehqonqul) kabi o'zbekona badiiy tafakkurning eng yuksak qirralarini o'zida mujassam etadi.

Asarlarning qiyosiy tahlili va muqoyasa Tadqiqot doirasida tanlangan asarlarning qiyosiy tahlili har ikki adabiyot tizimidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniq obrazlar dinamikasida ko'rish imkonini beradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek va Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" asaridagi Jeyn Eyr obrazlari sof shaxsiy tuyg'u va ijtimoiy to'siqlar ziddiyatini boshdan kechiradi. Otabekning ruhiy fojiasi uning Kumushga bo'lgan muhabbati hamda ota-onasi oldidagi farzandlik andishasi o'rtasidagi to'qnashuvda aks etsa, Jeyn Eyning iztirobi sevgisi va o'z ayollik sha'ni hamda diniy-axloqiy prinsiplarini saqlab qolish kurashiga aylanadi. Biroq Otabek oila tinchligi uchun konfliktni ichiga yutib taqdirga tan bergan passiv-andishali tip bo'lsa, Jeyn Eyr o'z erkinligi uchun an'analarni buzib chiqib, haqiqatini himoya qilgan aktiv-isyonkor tipdir.

Shuningdek, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Akbarali va Zebi obrazlari hamda Virjiniya Vulfning "Mayoq sari" romanidagi Ramsay xonim va Lili Brisko xarakterlari muhitning ruhiyatga tazyiqi jihatidan kuchli qiyosiy asosga ega. Akbarali o'z amali, shaxsiy baxti va vijdon qiynog'i chorrahasida ruhan yemirilayotgan ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar qurboni sifatida tasvirlanadi. Virjiniya Vulf esa "ong oqimi" texnikasi orqali Ramsay xonimning soniyalar ichida miyasidan o'tgan chalkash fikrlari, vaqtning tez o'tishi va hayotning foniyligi haqidagi sof ekzistensial ruhiy konfliktini ko'rsatib beradi. Muqoyasa shuni ko'rsatadiki, Cho'lpon ruhiy iztirobni ijtimoiy-tarixiy tuzum fojiasi bilan bog'lasa, Vulf uni inson mavjudligining falsafiy muammolari orqali ochadi.

Bundan tashqari, Odil Yoqubovning "Diyonat" romanidagi Otaboy oqsoqol va Tomas Hardining "Tessning taqdiri" asaridagi Tess obrazlarida ma'naviy poklik va vijdon mezon ustuvorlik qiladi. Otaboy oqsoqol atrofidagi korrupsiya va yaqinlarining iymonsizligiga qarshi ichki ma'naviy kurash azobini cheksa, Tess jamiyatning soxta axloq qoidalari ostida o'zining sof tabiatini saqlash uchun fojiaiy qurbonlikka aylanadi. Har ikki asarda ham yuksak ma'naviy mezonlar va atrof-muhitning tubbanligi qahramonlarni chuqur ruhiy inqirozga yetaklaydi.

ISTIQBOLLAR

Zamonaviy globallashuv va madaniy integratsiya sharoitida o'zbek va ingliz romanchiligidagi ruhiy konfliktlarni tasvirlash metodlari g'oyaviy va uslubiy jihatdan bir-biriga yaqinlashib bormoqda. Bugungi o'zbek adabiyotida badiiy personajlarning ruhiy olamini yoritishda an'anaviy usullardan tashqari G'arb adabiyotiga xos bo'lgan modernistik tajribalar, ramziylik, psixozanaliz elementlari va "ong oqimi" kabi tasvir vositalari faol o'zlashtirilmoqda. Kelajakda qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida nafaqat klassik asarlar, balki eng zamonaviy o'zbek va ingliz romanlaridagi shaxsning global muammolar, texnologik asr va ma'naviy yolg'izlik keltirib chiqaradigan yangi tipdagi ruhiy konfliktlarini tadqiq etish muhim istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

XULOSA

O'zbek va ingliz romanlarida ruhiy konfliktning tipologik xususiyatlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Ruhiy konflikt - badiiy asarda personaj tabiati va g'oyaviy niyatni ochib beruvchi eng dinamik vositadir. Ingliz romanchiligi psixologik to'qnashuvlarni shaxsiy erkinlik, individualizm va insonning o'z-o'zini anglashi prizmasidan tasvirlashga moyil bo'lsa, o'zbek romanchiligi uni ma'naviy poklanish, iymon, ijtimoiy va oilaviy burch mezonlari orqali yoritadi. Garchi ikki xalqning falsafiy ildizlari va badiiy ifoda usullari (G'arbdagi psixoanaliz va Sharqdagi lirik-ruhiy parallelizm) farq qilsa-da, inson ruhiyatining iztiroblari, fojialari va haqiqatni izlashga bo'lgan intilishi barcha xalqlar uchun umumiydir. Mazkur ikki xil adabiy yondashuvni qiyosiy o'rganish jahon romanchiligi taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni va milliy o'ziga xosliklarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qodiriy A. O'tkan kunlar. - Toshkent, 1926.
2. Bronte Ch. Jane Eyre. - London, 1847.
3. Cho'lpon. Kecha va kunduz. - Toshkent, 1936.
4. Woolf V. To the Lighthouse. - London, 1927.
5. Yoqubov O. Diyonat. - Toshkent, 1977.
6. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. - Toshkent, 2004.